

HUQUQIY MAQOLA YOZISH TARTIBI

Meliboyeva Dilnoza Ergashevna

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi

“Umumta’lim fanlar kafedrasi” o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10450088>

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqiy maqola nima ekanligi, huquqiy maqolaning yozilish sabablari, uning yozilishidan maqsadi, boshqa maqolalardan farqi va qanday yozish tartib qoidalari haqida atroflicha ma`lumot berib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Huquqiy maqola yozish tartibi, sabablari, maqsadlari, yozilish tartibi, kematketligi.

PROCEDURE FOR WRITING A LEGAL ARTICLE

Abstract. This article provides detailed information about what a legal article is, the reasons for writing a legal article, the purpose of its writing, its difference from other articles, and the rules of how to write it.

Key words: Procedure for writing a legal article, reasons, goals, order of writing, sequence.

ПОРЯДОК НАПИСАНИЯ ЮРИДИЧЕСКОЙ СТАТЬИ

Аннотация. В этой статье подробно описывается, что такая юридическая статья, причины написания юридической статьи, цель ее написания, ее отличие от других статей и правила процедуры написания.

Ключевые слова: порядок написания юридической статьи, Причины, цели, Порядок написания, последовательность.

KIRISH.

Mijozlarga yuristlarning o‘zi haqida ma'lumot berishning keng tarqalgan usullaridan biri huquqiy sohada maqolalar yozishdir. Huquqiy maqola maqola chop etishning afzalliliklari:

- Har bir maqola ostida muallif ko'rsatilgan bo'lib, maqolani o'qigan foydalanuvchi o`sha maqola egasining profiliga tashrif buyurishi ehtimolli katta;
- Yozilgan Maqolalar yuristning sahifasida yig'ilib boradi, har bir tashrif buyuruvchi osongina barcha maqolalarni ko'rishi mumkin bo`ladi;

- Fikrni ko'proq auditoriyaga yetkazish imkoniyati paydo bo`ladi.

Maqolalarga quyidagi talablar:

- Maqola o'zbek yoki rus tilida bo'lishi;
- Imlo va grammatik xatolarsiz bo'lishi;
- ommabop, keng aholi uchun mo'ljallangan bo'lishi;

Huquqiy maqola yozishning tartibi va ketma ketligi quyidagilar:

1) Maqolaning mavzusi imkon qadar maqolani qamrab oladigan mavzu bo'lishiga harakat qilinishi lozim. Chunki maqola qanchalik keng qamrovli bo`lsa sizga insonlarning ishonchi yanada ortadi. Shu sababli ham imkonli boricha keng qamrovli, dolzarb mavzulardan tanlang. Masalan, "O'zbekiston fuqaroligini olish shartlari".

2) Maqolaning qaysi huquq sohasiga oid ekanligini tanlash.

3) Tilni tanlash.

Yani bumda oldin maqolani qaysi tilda yozishingiz haqida o`ylab ko`ring. O`zbek tilida yozilgan maqolani nisbatan ko`proq inson o`qiydi va tushuna oladi. Ammo til bilish davr talabi bo`lganligi va bizning yurtimizda ham boshqa millat vakillari sonining ko`payotganligi, ingiliz tili va rus tili mamalakatimizdagi eng dolzarb va keng qo`llanilayotgan tillardan biri bo`lganligi uchun ham annotatsiya qismini rusch ingilizcha yozishga harakat qiling. Agar bu tillardan birini mukammal bilsangiz hech ham ikkilanmay maqolangizni boshqa tilde yozishingiz mumkin.

Maqolalarning mazmuniga qo`yiladigan talablar:

1) Maqola huquqiy-tadqiqot ishining tarkibiy qismi bo`lishi yoki mustaqil huquqiy-nazariy va huquqiy-metodik masalaga qaratilishi hamda u ilmiy uslubda bayon etilishi lozim.

2) Maqolada kichik bir huquqiy muammo ko`tariladi va ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy yoki ilmiy-metodik jihatdan muammoning yechimi hal qilinadi.

3) Maqola quyidagi tuzilma(struktura)ga rioya qilingan holda yozilishi tavsiya qilinadi:

Kirish. Unda davrning ijtimoiy siyosati, fanning huquqiy va xalqaro taraqqiyot darajasi va tanlangan muammoning dolzarbliги aks ettiriladi.

Maqsad va uni asoslash. Maqoladan ko`zlangan maqsad yoritilgani holda, tanlangan muammoning fandagi shu muammolar tizimida o`rganilganlik darajasi hamda umumiy muammolar ichidan tanlangan muammoning o`ziga xos xususiyati ta`kidlanadi.

Huquqiy muammoning tavsifi va yechimi. Bunda ilmiy manbalar hamda tadqiqot jarayonida to`plangan ilmiy-nazariy va amaliy faktlar har tomonlama tahlil va tavsif qilinadi, shuningdek, tayyorlangan tajriba-sinov natijalari, ko`rgazmali (illustratsion) material bilan mustahkamlanishi mumkin.

Yakuniy qism. Unda huquqiy bayon etilgan muammo bo`yicha huquqiy va amaliy ahamiyati yuzasidan xulosa qilinadi.

Maqola mazmuniga quyidagi talablar qo`yiladi:

1) Maqola mazmun-mohiyati bilan muallifning ilmiy qarashlarini aks ettirishi va original bo`lishi kerak.

2) Maqola barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental g`oyalarni tatbiq etishga bag`ishlanadigan bo`lsa, mavjud nazariyalarga qo`shilgan yangilik yoki uning takomillashtirilayotgan jihatlari ochib berilishi lozim. Taklif etilayotgan g`oyaning mazmuni, nazariy va amaliy ahamiyati isbotlab berilishi talab qilinadi.

3) Maqola huquqiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g`oyalarni tatbiq etishga bag`ishlanadigan bo`lsa, ularning yangilik darajasi hamda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning samaradorligi o`tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari bilan asoslanishi zarur.

Maqolani rasmiylashtirishga qo`yiladigan talablar

1) Muallif familiyasi va ismi sahifa boshining o`ng tomoniga 14 keglikda qalin kursiv harflar bilan, uning ish joyi esa qalin bo`lmagan kursiv bilan yoziladi va elektron pochtasi ko`rsatiladi, 3,5 x 4,5 hajmdagi rasmi beriladi.

2) Maqola nomi 14 keglda bosh harflar bilan sahifa boshining o`rtasiga joylashtiriladi.

3) Maqola matni 14 keglda yoziladi.

4) Qog`oz formati: yuqorida va pastdan 2 sm., chap tomondan 3 sm., o`ng tomondan 1,5 sm. qoldiriladi.

5) Satrlar oralig`i – 1,15 interval.

6) Havolalar sahifa tagida beriladi, unda adabiyotning muallifi, nomlanishi, nashriyotning qaysi shaharda joylashganligi, nashriyot nomi (ular qaysi til va yozuvda bo'lsa, shu til va yozuvda keltiriladi), nashr yili, fikr olingen yoki asoslangan sahifasi ko'rsatiladi hamda o'rnatilgan tinish belgilari tizimiga amal qilinadi.

Huquqiy maqolaning qisimlari esa quyidagilar:

1)**Annotatsiya** (maqola haqida qisqacha va umumiy ma'lumot berib o'tiladi. Ya`ni tanlangan huquqiy mavzu haqida umumiy ma'lumot. Maqolalarning qisqacha annotatsiyasi 250 so'zdan oshmagan holda beriladi. Unda tadqiqot muammosi, uning dolzarbliji, tadqiqot muammosini ochib berish uchun qo'llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari, maqolaning to'la mazmunidan kelib chiqqan holda muallifning ilmiy va amaliy hissasining qisqacha bayoni yoritiladi.)

2) **Tayanch so'zlar** (maqolada ishlatilgan eng ko'p huquqiy iboralar va terminlar ketma-krtligi keltiriladi. Tayanch so'zlar maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa mazmunda ochib beruvchi kalit so'zlar hisoblanadi. scholar.google.com yoki google.com qidiruv tizimida maqola oson va eng birinchi sahifalarda topilishi uchun tayanch so'zlarning har biri asosiy matn tarkibida o'rtacha 5-10 marta takrorlanishi tavsiya etiladi.)

3)**Kirish qismi** (maqola mavzusining asosiy ochib beriladigan qismi. Ya`ni bu qismda tanlangan huquqiy mavzu to`lalaigicha ochib beriladi. Mavzuga oid yangiliklar va boshqa barcha ma'lumotlar kiritiladi bu qismda. Kirish qismida tadqiqot muammosi, uning maqsad va vazifalari yoritiladi. Shuningdek, mazkur qism tadqiqot mavzusining tanlanish asosi, uning dolzarbliji va huquqiy ahamiyatini tushuntirib beradi (ushbu qismda Prezident asarlari va ma'ruzalariga albatta murojat qilinishi lozim).

4)**Xulosa** (Xulosa qismida olib chiqilgan huquqiy mavzu haqida yakun va xulosa yoziladi. Ya`ni muallifning shaxsiy fikr va mulohazalari, taklif va o'zgartirishlari kiritiladi. Tadqiqotning maqsad, vazifalarining anglashilganligi hamda tadqiqot savollarining o'z javobini topganligi, tadqiqotning asosiy natijalariga va tadqiqotning umumiy jarayoniga umumiy xulosalar, shu bilan birga, takliflar va ayni tadqiqotdan kelib chiqqan holda kelajak tadqiqot ishi yo'nalishlari maqola xulosa va takliflari qismining asosini tashkil etadi.

5) Foydalanilgan adabiyotlar (bu qismda muallif foydalangan barcha adabiyotlar ro'yxati kiritiladi. Ushbu qismda tadqiqotda foydalanilgan barcha adabiyotlarning ro'yxati [1], [2] yoki [3] ketma-ketligida qo'yiladi: mualliflar ismi-sharifi, maqola nomi, jurnal nomi, nashri, yili, soni, betlari. Shuni alohida takidlash joizki, tadqiqot ishida foydalanilmagan adabiyotlar foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiga kiritilmasligi lozim)

XULOSA

Huquqiy maqola yozishdan asosiy maqsad bu ma'lum bir mavzuni olib chiqish va uni yoritish orqali, o'sha mavzu haqida insonlarda ma'lumot va tushuncha uyg'ota olishdir. Biz internet texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan bir davrda yashab turibmiz.

Ortiq insonlar o'z haq-huquqlari haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

Agar shunday huquqiy maqolalar soni ko'paysa insonlar huquqiy terminlar va huquqiy holatlar haqidagi bilimlarga ko'proq ega bo'ladilar. Mana shuning uchun ham rivojlanayotgan mamalakatimizda huquqiy sohani rivojlantirish, huquqiy ma'lumotlarga efa bo'lish davr talabidir. Shuning uchun ham huquqiy maqolalarning ahamiyati juda muhimdir

REFERENCES

1. <https://uzinterbiz.com/internet-kasblar/maqola-yozish/qoidalari-qadamba-qadam-qollanma/.html>
2. <https://umirdinov.com/category/maqolalar/>
3. <https://lp.yuridik.uz/maqola-yozish>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/ilmiy-maqola-yozish-asoslari-ilmiy-maqola-qanday-yoziladi/viewer>
5. <https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/maqolaformati>